

O'QUVCHILARDA IJOBIY XULQ-ATVOR VA SHAXSIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH

Tastanbekova Qarlig'ash Esenbekovna
Toshkent viloyati Parkent tumani 23-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor va shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan. Ijobiy xulq-atvor o'quvchining jamiyatda o'zini to'g'ri tutishi, axloqiy me'yorlarga rioya qilishi va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishini ifodalaydi. Maqolada tarbiya jarayoni, motivatsiya, oilaviy muhit va ta'lim muassasasining roli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijobiy xulq-atvor, shaxsiy sifatlari, o'quvchi, tarbiya, motivatsiya, axloqiy rivojlanish, ijtimoiylashuv, psixologik muhit, mas'uliyat, o'zini boshqarish.

KIRISH

O'quvchilarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki ijobiy xulq-atvor nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki shaxsning kelajakdagi ijtimoiy hayotga moslashuvini ham ta'minlaydi. Ijobiy xulq-atvor shaxsning axloqiy qadriyatlarga sodiqligi, o'zini boshqarish qobiliyati, atrofdagilar bilan to'g'ri munosabat o'rnatishi va jamiyat qoidalariga rioya qilishi bilan tavsiflanadi. Bunday sifatlari bolalik va o'smirlik davrida shakllanadi.

Ijobiy xulq-atvorni rivojlantirishda motivatsiya muhim rol o'ynaydi. O'quvchida o'zini rivojlantirishga intilish, muvaffaqiyatga erishish istagi va ijtimoiy e'tirofga bo'lgan ehtiyoj ijobiy xulqni kuchaytiradi. Oilaviy muhit bu jarayonning asosiy omillaridan biridir. Mehr-oqibat, qo'llab-quvvatlash va ota-onaning ijobiy namunasi bolada axloqiy me'yorlarni shakllantiradi. Aksincha, nizoli yoki befarq muhit salbiy xulq-atvorni kuchaytirishi mumkin.

Ta'lim muassasasida o'qituvchi shaxsiy namunasi katta ahamiyatga ega. O'qituvchining adolatli, sabrli va mas'uliyatli xulqi o'quvchilar uchun ijobiy model vazifasini bajaradi. Shuningdek, interfaol metodlar, guruhii ishlar, loyiha faoliyati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchilarda hamkorlik, mas'uliyat va tashabbuskorlik kabi ijobiy sifatlarni rivojlantiradi. Psixologik xizmat ham bu jarayonda muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning emotsional holatini kuzatish, individual yondashuv va psixologik treninglar orqali ularning shaxsiy sifatlari rivojlantiriladi. Ijobiy xulq-atvorni shakllantirishda rag'batlantirish tizimi ham samarali hisoblanadi. Maqtov, e'tirof va ijobiy baholash o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Stress nazariyasi yaratuvchisi Gans Sele shunday deydi: “Bizni stressning o‘zi emas, balki bizning unga bo‘lgan munosabatimiz o‘ldiradi”. Ruhiiy zarba olgan paytda komil inson hissiy jihatdan barqaror turib, fikrlari va his-tuyg‘ularini boshqaradi va vahimaga tushmaydi. O‘ziga munosib baho bera olish. Munosib baho berish haddan tashqari oshirib yubormaslik va pasaytirmaslik hamdir. Ijobiy xislatli inson o‘zining ham afzalliklari, ham kamchiliklari borligini biladi. U o‘z imkoniyatlarini obyektiv ravishda tushunadi, o‘ziga ishonadi va boshqalarga biror narsani isbotlashga urinmaydi, hayotni borligicha qabul qiladi. Bu esa uning shaxsiyati nuqsonlari ustida ishlashini istisno qilmaydi. “Pozitiv” so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “musbat, ijobiy” ma’nolarini anglatadi. Bu tushunchaga berilgan ta’riflardagi fikrlarni umumlashtirgan holda pozitivlik inson his-tuyg‘ularining tashqi qiyofadagi aksi va ijtimoiy faoliyatdagi ko‘rinishi deb ta’riflashimiz mumkin. Hozir pozitiv insonlarga taalluqli bir qancha ijobiy xususiyatlarni sanab o‘tishimiz mumkin. Pozitiv insonlar ongida “kutish”, “tasodif”, “omadga ishonish” kabi so‘zlar uchramaydi. Ular hayotlarini yo‘lga qo‘yishda faol harakat qilishadi. Ular tinim bilmay mehnat qiladilar, qiyin lahzalarda o‘zini yaxshi his qilishi uchun atrofni, dunyoni o‘zgartirishga harakat qilishadi. Hech bekor o‘tirmaydilar va tinib-tinchimaydilar.

Pozitiv insonlar yaxshi yashashi uchun xalaqit qilayotgan har qanday buyumdan, g‘oyadan osongina voz kechadi. Aksariyat odamlar umrining oxiriga qadar o‘zlari sevgan buyumlardan, g‘oyalardan voz kechmay, buning uchun kuch-quvvatlarini ayashmaydi. Pozitiv insonlar yaxshi va yomon voqealar taassuroti aynan qachon, qayerda ro‘y bergan bo‘lsa, o‘sha yerda qolishi kerak deb hisoblaydi. Ular kundalik ish bilan band bo‘lib, bugun va kelajakni yaratayotganliklari uchun ham o‘tmishni hadeb xotirlashga vaqt topmaydi. O‘tmishda qilgan xatolari uchun afsuslanmaydi, balki undan saboq olib, kelajakda takrorlamaslikka harakat qiladi.

Pozitiv insonlar o‘z hayotining faqat yaxshi tomonini ko‘radi. Ularning har bir kuni qiziqarli voqealarga, yangi taassurotlarga boy bo‘ladi. Pozitiv insonlar o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay oladilar va imkoniyat darajasidagi ishlarni amalga oshirish uchun intilishadi. Hatto omadsizlikka uchraganlarida ham yangi variantlarni o‘ylab topadilar. Pozitiv insonlar o‘z qo‘rquviga asir bo‘lmaydi. Ular har qanday sharoitda ham o‘z qo‘rquvlarini yengadi. Pozitiv insonlarni eng baxtli inson deb bemalol aytishimiz mumkin. Ammo bunday insonlar ham hayotlarida omadsizlikka, baxtsizlikka uchraydi, dard chekadi, lekin tushkunlikka tushmay, baxtsizlikdan baxt qidiradi.

Pozitiv insonlar o‘zlarini hurmat qiladi. Boshlariga tushgan ishda hech qachon birovni ayblamaydi. Har qanday sharoitda ham boshqalardan yordam kutmaydi, balki faqat o‘z kuchlariga ishonadi. Yuqorida qayd etib o‘tilgan shaxs psixologiyasidagi pozitivlik xususiyatlari psixologiya fanining yangi tarmoqlaridan hisoblangan ijobiy psixologiyaning asosiy mavzularidan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar quyidagi o'quv qo'llanmalarda keltirilgan: D. A. Po'latova, G. M. Ro'zmatova "G'arb falsafasi tarixi" o'quv qo'llanmasi mavjud bo'lib, mazkur qo'llanmaning oltinchi bo'limida XIX–XX asrlarda G'arb falsafasi tahliliga bag'ishlangan. Pozitivizmning vujudga kelishi va yo'nalishlari bo'limida pozitivizm falsafasi, uning asosiy yo'nalishlari, fan va falsafa rivojida pozitivizm g'oyalarining ahamiyati haqida atroflicha va chuqur bilim, tushuncha va tasavvurlar hosil qilish, pozitivizm falsafasi bilan boshqa ta'limotlarni qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Rustamova G., Karimova R. "Falsafa tarixi: Eng yangi davr G'arb falsafasi" nomli o'quv qo'llanma bo'lib, 17–38 sahifalarda "Pozitivizmning vujudga kelishi va yo'nalishlari" haqida yoritilgan va pozitivizmning shakllanishi va asosiy xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari, pozitivizmning keyingi taraqqiyoti va uning falsafa tarixidagi ahamiyati masalalari yoritilgan. O'rganib chiqilgan manbalardan xulosa qilishimiz mumkinki, pozitivlik xususiyatlari bolalarda quyidagi sifatlarda namoyon bo'ladi. Bolalardagi (samimiylik, rostgo'ylik, halollik, ishonchlilik, aniqlilik, ijobiylik, tana pozitivligi) kabi ijobiy sifatlar yoshlikdan paydo bo'lishi va saqlanib qolishi muhim hisoblanadi.

Samimiylik eng qimmatli fazilatlardan biridir. Samimiylik sifatining sinonimlari halollik va rostgo'ylikdir. Samimiylik real his-tuyg'ularni namoyon qilish, boshqalarga so'z va amallarni haqiqiylikicha yetkazishda namoyon bo'ladi. "Samimiylik" so'zining ta'rifi "to'g'ri" va "ochiq" degan ma'noni anglatadi. Samimiylik insonning holatlarida, harakatlarida paydo bo'lishi mumkin. Chin dildan biror narsa qilish — maxfiy fikrlarsiz, sof niyat bilan harakat qilishda namoyon bo'ladi. Har bir inson bolaligida haqiqiy ma'nodagi samimiylikka va rostgo'ylikka to'la bo'ladi, uning tafakkurida biror narsaga da'vo yoki yolg'on bo'lmaydi, buni asrab qolish muhim hisoblanadi. Ishonchlilik so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "ishonish mumkin yoki loyiq" kabi ma'nolarni anglatadi. Ishonchlilik so'zi sifatga aylanganda hurmatli va ishonchli odam talqinida namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ishonchga loyiq bo'lish tushunchasini singdirishda turli xil kognitiv vaziyatlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Aniqlik so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, aniq narsa ma'nolarini bildiradi va sifatni bildiruvchi qo'shimcha sifatida ishlatiladi. Ilmda aniqlik deganda o'lchov natijalarining haqiqiy qiymat deb nomlangan mos yozuvlar qiymatiga qanchalik yaqinligi tushuniladi. Ilmiy uslubga asoslangan har qanday tadqiqot loyihasida ko'tarilgan gipotezaning to'g'riligini tasdiqlash uchun etarli miqdordagi ma'lumotlar va natijalar to'planishi kerak. Demak, bolalarda aniqlik sifatini shakllantirishda bir qancha kreativ metodlardan foydalanish mumkin.

Maktab yoshidagi bolalarga tana pozitivligi sifatini shakllantirish juda muhim sanaladi. Bolalikdan ular o'zlariga va o'z ko'rinishlariga nisbatan ijobiy munosabatda

bo'lishi muhimdir. Bolalarga tana pozitivligi insonning ichki mazmuniga ham mos bo'lishi kerakligini tushuntirish pozitivlik sifatlarining eng asosiy omili hisoblanadi.

Mas'uliyat — o'zining xatti-harakatlari va uning oqibatlarini uchun shaxsan javobgar bo'lish qobiliyati. Ijobiy xislatli inson o'zining fe'l-atvori, muomalasi, yurish-turishi o'z qarorlari bilan belgilanayotganini tushunadi va ular uchun javobgardir.

Oqilona e'tiqod. Pozitiv kishi o'zining bilim xazinasida o'zini qadrlash bilan bog'liq ehtiyoqkorligiga ega. Masalan, men boshqalar bilan bir qatorda o'zimni ham hurmat qilishga haqliman, boshqa odamlarning menga baho berishidan ozodman, o'z e'tiqodim va qarashlarim asosida harakat qilaman.

Sobitqadamlik. Ongli vositalarga ega bo'lgan odam nafaqat maqsadini shakllantirishga, balki unga erishishda o'z irodasini namoyon etishga qodir. Maqsadga erishish uchun nafaqat tadbirlarni rejalashtirish, balki ba'zan ichki va tashqi omillar tufayli yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengishda qat'iylik ko'rsatish juda muhim.

Salomatlik. Bizning sog'lig'imiz jismoniy va ruhiy holatimizga bog'liq. "Sog'tanda sog'lom aql" degan mashhur iborani eslang. Ijobiy fazilatli inson o'zini hurmat qilgani uchun ham tanasiga g'amxo'rlik qiladi va o'zini yaxshi ko'radi. Chunki u sog'lom ruhga ega.

Yangi ko'nikmalar. Ijobiy xislatli inson komillikka intiladi, risoladagidek bo'lishi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanadi. Ular doim o'zgarishga tayyor va yangi narsalarni o'rganishni yaxshi ko'radi. Shuning uchun ko'nikmalarga ega bo'lishga va ko'p qirrali suhbatdosh bo'lishga yetarli vaqt ajratadi.

Hayotiy tajriba. Ijobiy xislatli inson muvaffaqiyatsizlikka hayot darsi sifatida qaraydi va tegishli xulosa chiqaradi. Bu nafaqat kelajakda bunday pasayishlarning oldini olishga yordam beradi, balki o'z imkoniyatlarini rivojlantirish va yetuklik darajasiga yetishda qimmatli tajriba orttiradi.

Xushchaqchqlik. Hatto qiyin vaziyatda ham pozitiv sabablar topish qobiliyati ijobiy insonni belgilaydi. Ushbu intellektual qobiliyat (atrofdagi odatiy bo'lmagan narsalarni ko'ra olish) har qanday yoshda ham rivojlanishi mumkin. Osonlik bilan sodir bo'layotgan narsalar bilan bog'liq bu qobiliyat unga atrofdagi odamlar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi.

Dunyo bilan o'zaro munosabatimiz va boshqalarning munosabati o'zimizni qanday anglashimiz va his qilishimizga bog'liq. Ijobiy xislatli inson ochiq bo'lishga, dunyoni o'rganishga, yangi yechimlarni topishga intiladi. Bunday odam hayotidagi ijobiy his-tuyg'ular va baxtga shaxsiy munosabat ustunlik qilishini sezadi va o'zining hissiyotlarini tashqi dunyo bilan bo'lishadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish kompleks psixologik-pedagogik yondashuvni talab etadi. Oila, maktab

va psixolog hamkorligi, motivatsiya, shaxsiy namuna va interfaol ta'lim usullari bu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Ijobiy xulq-atvorga ega bo'lgan o'quvchilar jamiyatda faol, mas'uliyatli va barkamol shaxs sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Shoumarov G'.B. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
5. Albert Bandura. Social Learning Theory. – 1977.
6. B.F. Skinner. Behaviorism Theory. – 1953.
7. UNICEF. Child Development and Parenting Support. – 2022.
8. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.